Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda interaktiv metodlardan foydalanish.....	713
Xilola Ochilova Sheraliyevna	
Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda munosabatlar tizimini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari.....	716
Xujaniyozova Oygul Rajabovna, Ibodullayeva Sharifaxon Oybek qizi	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarining kinematik va kinetik modellashtirish	721
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi	
O'smirlik davridagi inqiroz va uning muammolarining psixologik rivojlanish mexanizmlari	725
Xujaniyozova Oygul Rajabovna, Maksudbekova Shaxzoda Sherzod qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijodiy faoliyat asosida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning o'ziga xosligi	730
Yuldasheva Shoxida Botirovna, Menlimuratova Gulsanem	
Взаимосвязь защитных механизмов и психологической устойчивости подростков в условиях цифровой среды	734
Алимова Елена Геннадьевна	
Narrativ materiallar vositasida oilada o'smir yoshdagi bolalarda kitobxonlikni shakllantirish texnologiyalari.....	740
Yunusova Shahnoza Axror qizi	
Интеграция мультипликации в образовательную среду доо как средство всестороннего развития личности ребенка	745
Терехова Ольга Евгеньевна, Аллазарова Мадина Давронбековна	
Совершенствование речевой культуры студентов	749
Пардабоева Дильфуза Рустамовна	
Использование потенциала искусства в формировании эмоционального интеллекта и социальной компетентности дошкольников	752
Терехова Ольга Евгеньевна, Сайфидинова Мунира Бурхонидиновна	
Теоретические основы проектирования инновационных моделей формирования коммуникативной готовности к школе	756
Терехова Ольга Евгеньевна, Абдурауфова Хилолахон Шахобитдин кизи	
Теоретико-методологические основы формирования логического мышления старших дошкольников посредством интеграции традиционных и интерактивных игр	760
Терехова Ольга Евгеньевна, Рахимова Гулноз Эркиновна	
От репродукции к авторству: поэтапная система развития языковой креативности в старшем дошкольном возрасте	764
Терехова Ольга Евгеньевна, Каримова Регина Равильевна	
Опытно-экспериментальное исследование формирования нравственно-волевых качеств дошкольников в условиях доо средствами национальных игр	768
Терехова Ольга Евгеньевна, Хакимова Одина Шермухамматовна	



ZAMONAVIY RAQAMLI JAMIYATDA OILAVIY QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI VA UNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI

Rasulova Dildora Shuhratovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida oilaviy qadriyatlarning transformatsiyasi hamda mazkur jarayonning yoshlar ongiga ko'rsatadigan psixologik-pedagogik ta'siri nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda oilaviy tarbiyaning raqamli muhit bilan o'zaro aloqador jihatlari, virtual ijtimoiylashuvning yoshlar qadriyatlar tizimiga ta'sir etish mexanizmlari, shuningdek, internet kontentining axloqiy-me'yoriy qarashlarga ta'siri yoritib beriladi. Bundan tashqari, oiladagi real muloqotning qisqarishi, "technoference" (texnologik aralashuv) hodisasi hamda ommaviy axborot vositalarining ta'siri oilaviy qadriyatlarning transformatsiyasi bilan uzviy bog'liqlikda izohlanadi. Maqolada raqamli davr sharoitida oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish, ota-onalarning raqamli tarbiyaviy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda yoshlarning media savodxonligini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: raqamli jamiyat; oilaviy qadriyatlar; yoshlar ongiga ta'sir; raqamli ijtimoiylashuv; tarbiya; media savodxonlik; virtual muhit.

Abstract: This article provides a theoretical analysis of the transformation of family values in the context of modern digital society and examines the psychological and pedagogical impact of this process on youth consciousness. The study explores the intersections between family upbringing and the digital environment, identifies the mechanisms through which virtual socialization influences young people's value systems, and highlights the impact of online content on moral and normative attitudes. In addition, factors such as the reduction of real-life family communication, the phenomenon of "technoference" (technology interference), and media influence are interpreted in relation to the transformation of family values. The article presents scientifically grounded conclusions and practical recommendations aimed at enhancing the effectiveness of family upbringing in the digital era, developing parents' digital parenting competencies, and strengthening youth media literacy.

Key words: digital society; family values; impact on youth consciousness; digital socialization; upbringing; media literacy; virtual environment.

Аннотация: В данной статье проводится теоретический анализ трансформации семейных ценностей в условиях современного цифрового общества и психолого-педагогического влияния данного процесса на сознание молодежи. В исследовании рассматриваются точки пересечения семейного воспитания с цифровой средой, механизмы воздействия виртуальной социализации на систему ценностей молодежи, а также влияние интернет-контента на морально-нормативные установки личности. Кроме того, в контексте трансформации семейных ценностей интерпретируются такие факторы, как сокращение реального внутрисемейного общения, феномен "technoference" (технологическое вмешательство) и влияние средств массовой информации. В статье представлены научно обоснованные выводы и практические рекомендации, направленные на повышение эффективности семейного воспитания в цифровую эпоху, развитие цифровой воспитательной компетентности родителей и укрепление медиаграмотности молодежи.

Ключевые слова: цифровое общество; семейные ценности; влияние на сознание молодежи; цифровая социализация; воспитание; медиаграмотность; виртуальная среда.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan sharoitda jamiyat hayotining barcha sohalari, xususan, oilaviy munosabatlar tizimi ham tubdan transformatsiyaga uchramoqda. Raqamli jamiyatning shakllanishi natijasida shaxs ijtimoiylashuvi jarayonlari, qadriyatlar tizimi, tarbiya mexanizmlari hamda avlodlar o'rtasidagi madaniy uzviylik yangi ko'rinishga ega bo'lmoqda. Ayniqsa, oila qadriyatlarining saqlanishi yoki o'zgarishi masalasi psixologiya va pedagogika fanlari doirasida dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda.



Oila har qanday jamiyatda shaxsning ma'naviy-axloqiy, emotsional va ijtimoiy yetukligini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy institut hisoblanadi. Oilaviy qadriyatlar esa shaxsda mas'uliyat, mehr-oqibat, hurmat, hamkorlik, milliy mentalitetga xos axloqiy me'yorlar va barqaror hayotiy pozitsiyani shakllantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Biroq raqamli axborot oqimining kuchayishi, internet tarmoqlari va ijtimoiy platformalarning kundalik hayotda ustuvor o'rin egallashi natijasida yoshlar ongiga ta'sir etuvchi ko'plab yangi psixologik omillar paydo bo'ldi. Bu omillar yoshlar orasida erkin fikr almashuvi va o'zini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirsa-da, axloqiy mas'uliyatning susayishi, muomala madaniyatining buzilishi, virtual makonda tajovuzkorlik va befarqlik kabi salbiy holatlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'lishi mumkin^[1]. Mazkur omillar oilaviy qadriyatlar tizimini qayta ko'rib chiqish, an'anaviy tarbiya modelining samaradorligini tahlil qilish va uni zamonaviy sharoitga moslashtirish zaruratini tug'dirmoqda.

Raqamli jamiyat sharoitida yoshlar ongida kuzatilayotgan o'zgarishlar, avvalo, ularning dunyoqarashi, kommunikativ ehtiyojlari, ijtimoiy me'yorlarni qabul qilishi hamda qadriyatlarga munosabatida yaqqol ko'rinadi. Turli madaniyatlardan kirib kelayotgan g'oyalar esa milliy qadriyatlar bilan to'qnash kelib, yoshlarda ma'naviy izlanish va ziddiyatli holatlarni keltirib chiqarmoqda^[2].

Virtual makonning kengayishi bir tomondan yoshlarning axborotga erkin kirish imkoniyatlarini oshirib, ta'lim va o'zini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Boshqa tomondan esa, raqamli muhitning nazoratsizligi, axborotlarning haddan tashqari ko'pligi, ijtimoiy tarmoqlardagi "ideal hayot" modeli, ommaviy madaniyat ta'siri yoshlar orasida individualizm, emotsional sovuqlik, oilaviy mas'uliyatga nisbatan befarqlik hamda an'anaviy qadriyatlarning nisbatan zaiflashuvi kabi holatlarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa oilaviy qadriyatlarining mazmunan yangilanishi yoki deformatsiyalashuvi jarayonini kuchaytirib, yosh avlodning psixologik barqarorligi va tarbiyaviy yo'nalishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli jamiyatda oilaviy qadriyatlarning o'zgarish dinamikasi va mazkur o'zgarishlarning yoshlar ongiga psixologik-pedagogik ta'sirini o'rganish ilmiy-amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki yoshlar ongining shakllanishi faqat ta'lim tizimi bilan emas, balki oiladagi psixologik iqlim, ota-ona namunasi, oilaviy muloqot sifati va qadriyatlarga sodiqlik kabi omillar bilan ham uzviy bog'liqdir. Raqamli sharoitda esa bu omillar internet resurslari, tarmoqdagi ijtimoiy tajriba va virtual ijtimoiylashuv jarayonlari bilan kesishib, yoshlarning axloqiy qarashlari hamda hayotiy maqsadlariga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Psixologik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha turli ijtimoiy yo'nalganlik, ustanovkalar, hissiy madaniyat, odamning axloqiy, ma'naviy va psixologik salomatligi – oiladagi katta a'zolarning muloqotda psixologik ustanovkalarni namoyon qilishlari, oiladagi axloqiy psixologik iqlimga to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir^[3].

Mazkur maqolada raqamli jamiyat sharoitida oilaviy qadriyatlarining o'zgarishiga olib kelayotgan psixologik va ijtimoiy omillar nazariy jihatdan tahlil qilinadi hamda ushbu jarayonning yoshlar ongiga ta'sir yo'nalishlari ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, oilaviy qadriyatlarining zamonaviy talqini, tarbiya jarayonida raqamli omillar bilan ishlash zarurati va pedagogik profilaktika yondashuvlari bo'yicha xulosaviy qarashlar ilgari suriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli jamiyat sharoitida shaxs rivojlanishi va tarbiya jarayonlariga ta'sir etuvchi omillar tobora murakkablashib bormoqda. Raqamli texnologiyalarning ommalashuvi insonning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi, muloqot madaniyati hamda qadriyatlarga munosabatini qayta shakllantiruvchi muhim psixologik-madaniy muhitni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli so'nggi yillarda psixologiya va pedagogika fanida "raqamli sotsializatsiya", "media ta'sir", "virtual identifikatsiya" kabi konseptlar yoshlar ongidagi o'zgarishlarni izohlashda keng qo'llanilmoqda.

Oilaviy qadriyatlar masalasi esa shaxs ijtimoiylashuvining eng muhim mexanizmlaridan biri sifatida ilmiy adabiyotlarda alohida o'rin egallaydi. Oila insoniyat taraqqiyotining boshida turuvchi, tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqqan eng qadimiy institutdir. Uning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat: biopsixologik, iqtisodiy, ijtimoiylashuv, tarbiyaviy, madaniy, emotsional qo'llab-quvvatlash va rekreativ (dam olish, ruhiy tiklanish) funksiyalar^[4].

Aynan ushbu funksiyalar orqali oila nafaqat alohida shaxsning rivojlanishida, balki umumjamiyatda barqaror ijtimoiy tizimning shakllanishida ham muhim o'rin egallaydi. Oila ichidagi rollar (ota, ona, farzand, opa-uka) ijtimoiy me'yorlar asosida shakllanadi va bu me'yorlar jamiyatning umumiy ijtimoiy tuzilmasini barqarorlashtiradi. Bu me'yorlar orqali oila a'zolari o'zaro hurmat, mas'uliyat, birdamlik, sabr-toqat va sadoqat kabi qadriyatlarni amaliyotda o'zlashtiradilar^[5].

Pedagogik nuqtayi nazardan, oilada shakllangan qadriyatlar keyingi bosqichlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Psixologik jihatdan esa oilaviy muhit shaxsning affektiv sohasi, motivatsiyasi, ichki ijtimoiy me'yorlarni qabul qilishi, o'zini anglashi va shaxsiy identifikatsiyasi uchun poydevor vazifasini bajaradi.

Nazariy manbalarda "qadriyat" tushunchasi odatda shaxs va jamiyat hayotida ma'naviy-axloqiy yo'nalishni belgilovchi, tanlov va xulq-atvorni boshqaruvchi ichki mezon sifatida talqin qilinadi. Oilaviy qadriyatlar esa avlod-



dan-avlodga o'tib keluvchi me'yorlar, urf-odatlar, tarbiya tamoyillari, oila ichidagi muloqot va o'zaro mas'uliyatni belgilovchi ijtimoiy-psixologik tizimdir. Ushbu qadriyatlar yoshlarning ongida "ideallar", "oilal model", "hayotiy maqsad" hamda "ijtimoiy rol" haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi.

Biroq raqamli muhitning kengayishi, internet platformalarining kuchli ijtimoiy ta'sir manbaiga aylanishi, ommaviy madaniyatning algoritmik tarzda tarqalishi natijasida oilaviy qadriyatlarning klassik modeli bosqichma-bosqich transformatsiyaga uchrayotgani kuzatilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda raqamli jamiyatning bu boradagi ta'siri ikki tomonlama ko'rinishda izohlanadi: bir tomondan, raqamli texnologiyalar axborotga erkin kirish, masofaviy ta'lim, oila a'zolari o'rtasida masofadan turib aloqani mustahkamlash imkonini bersa; ikkinchi tomondan esa, virtual muhit real oilaviy muloqot o'rnini egallashi, hissiy yaqinlikning kamayishi hamda ijtimoiy rollarning buzilishi kabi salbiy oqibatlarni kuchaytirishi mumkin.

Psixologik tadqiqotlarda yoshlar ongiga raqamli muhit ta'siri asosan quyidagi yo'nalishlarda yoritiladi:

1. Motivatsion sohaning o'zgarishi (muvaqqat mezonlarining "layk", obuna, trend kabi ko'rsatkichlar bilan belgilanib borishi);
2. Identifikatsiya jarayonining murakkablashuvi (virtual identifikatsiya real o'zlikni siqib chiqarishi);
3. Emotsional sohaning o'zgarishi (tezkor kontent oqimi sabab hissiy beqarorlik, taqqoslash sindromi);
4. Qadriyatlarga munosabatning yangilanishi (an'anaviy me'yorlarning modern va global standartlar bilan raqobatga kirishi).

Pedagogik adabiyotlarda esa muammo ko'proq "tarbiya jarayonining raqamli muhitga moslashuvi", "ota-onaviy nazorat va media savodxonlik", "raqamli tarbiya kompetensiyasi" tushunchalari orqali izohlanadi. Bu yondashuvda oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari raqamli vositalar orqali qo'llab-quvvatlanishi mumkinligi ta'kidlanadi, biroq tarbiya mazmuni va nazorat tizimi kuchsiz bo'lsa, raqamli muhit tarbiyaviy bo'shliqni kuchaytirishi ham qayd etiladi.

Tadqiqotchilar tomonidan oilaviy qadriyatlarning o'zgarishi masalasida global tendensiyalar ham tilga olinadi. Jumladan, urbanizatsiya va migratsiya jarayonlari, oilaviy kommunikatsiya madaniyatining soddalashuvi, individualizmning kuchayishi, gender rollariga oid qarashlarning yangilanishi oilaning qadriyaviy tarkibiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli makon esa ushbu tendensiyalarni tezlashtiruvchi "katalizator" sifatida namoyon bo'lib, yoshlarning qadriyatlarga bo'lgan munosabatini qisqa vaqt ichida o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Shu asosda adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli jamiyat sharoitida oilaviy qadriyatlarning o'zgarishi yoshlar ongiga kompleks ta'sir ko'rsatib, ularning ijtimoiylashuvi, psixologik barqarorligi va tarbiyaviy yo'nalishida yangi muammolar hamda imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Demak, mazkur jarayonni psixologik-pedagogik yondashuvlar asosida chuqur tahlil qilish, oilaviy tarbiya va qadriyatlarni zamonaviy sharoitga mos ravishda mustahkamlash strategiyalarini ishlab chiqish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola nazariy tadqiqot turi doirasida amalga oshirilib, unda raqamli jamiyat sharoitida oilaviy qadriyatlarning o'zgarishi hamda mazkur jarayonning yoshlar ongiga ko'rsatadigan psixologik-pedagogik ta'siri ilmiy konseptual tahlil asosida yoritildi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlarida qo'llaniladigan tizimli yondashuv tamoyillariga tayanadi hamda ijtimoiylashuv jarayonini raqamli muhit kontekstida izohlovchi nazariy qarashlar bilan uyg'unlashtirildi.

Tadqiqotning metodologik negizini shaxs rivojlanishining ijtimoiy-psixologik determinatsiyasi, qadriyatlar evolyutsiyasi hamda tarbiya mexanizmlarining transformatsiyasi haqidagi ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Xususan, raqamli sotsializatsiya konsepsiyasi, media ta'sir mexanizmlari, yoshlarning identifikatsiya jarayonlari va qadriy yo'nalishlarning shakllanishiga oid psixologik nazariyalar metodologik asos sifatida qabul qilindi. Tadqiqot jarayonida oilaviy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda yangilanib borishi, global va raqamli omillar ta'sirida turli ijtimoiy qatlamlarda qayta talqin qilinishi ilmiy asosda tahlil etildi.

Nazariy tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy ilmiy usullarni o'z ichiga oldi:

1. **Ilmiy manbalarni tahlil qilish** - tadqiqot mavzusiga oid psixologik, pedagogik, sotsiologik va falsafiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar hamda kontseptual yondashuvlar tizimli ravishda o'rganildi. Bu jarayonda oilaviy qadriyatlar, raqamli jamiyat, yoshlar ongining shakllanishi, virtual muhit ta'siri, raqamli tarbiya va media savodxonlik kabi tushunchalarning ilmiy talqinlari solishtirildi.
2. **Sintez va umumlashtirish** - olingan nazariy bilimlar asosida raqamli jamiyat sharoitida oilaviy qadriyatlarining o'zgarish mexanizmlari hamda yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatish yo'nalishlari bo'yicha yaxlit konseptual xulosalar ishlab chiqildi. Turli manbalardagi fikrlar mantiqiy tarzda birlashtirilib, maqola g'oyaviy tarkibining ilmiy aniqligi ta'minlandi.

3. **Taqqoslash Metodi** - an'anaviy jamiyat va raqamli jamiyat sharoitida oilaviy qadriyatlarining mazmuni va tarbiyaviy imkoniyatlari qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, raqamli avlodning psixologik xususiyatlari hamda qadriyatlarga nisbatan munosabati turli ilmiy yondashuvlar asosida solishtirildi.
4. **Tizimli strukturaviy yondashuv** - oila, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va raqamli ijtimoiy platformalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlari yagona tizim sifatida ko'rib chiqildi. Bu yondashuv orqali oilaviy qadriyatlarining o'zgarishi faqat bitta omil bilan emas, balki kompleks ijtimoiy-psixologik va pedagogik determinantlar bilan bog'liqligi asoslandi.
5. **Kontseptual model asosida talqin (interpretatsiya)** - tadqiqot jarayonida oilaviy qadriyatlarining transformatsiyasini izohlovchi nazariy model shakllantirildi. Unda raqamli muhitning yoshlar ongiga ta'siri – axborot oqimi, virtual identifikatsiya, ommaviy madaniyat, ijtimoiy taqqoslash mexanizmlari va media orqali qadriyatlarga qayta yo'naltirish kabi komponentlar bilan izohlandi.

Tadqiqot doirasida olingan nazariy xulosalar yoshlar ongida oilaviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatning yangilanayotgan qirralarini aniqlash, tarbiyaviy jarayonlarda raqamli omillarni hisobga olgan holda pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish hamda oilaviy tarbiyani mustahkamlash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli jamiyat sharoitida oilaviy qadriyatlarining o'zgarishi, avvalo, yoshlarning ijtimoiy ongida qadriy yo'nalishlarning qayta shakllanishi bilan bog'liq murakkab psixologik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Raqamli axborot oqimining keskin kuchayishi, ijtimoiy tarmoqlar orqali shaxslararo muloqotning jadallashuvi hamda virtual makonda mavjud bo'lgan turli madaniy modellarning tezkor tarqalishi natijasida yoshlar ongida an'anaviy qadriyatlar tizimi bilan yangi global qadriyatlar o'rtasida "psixologik tanlov" holati yuzaga kelmoqda. Bu holat, ayniqsa, oilaga oid munosabatlar, mas'uliyat, muomala madaniyati, mehr-oqibat va avlodlararo hurmat kabi qadriyatlar mazmunida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda.

Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, oilaviy qadriyatlar o'zgarishi bevosita ta'sir ko'rsatayotgan bir qator salbiy omillar mavjud:

1. Madaniy va axloqiy qadriyatlarining erkin interpretatsiyasi;
2. Ommaviy madaniyatning ta'siri;
3. Ijtimoiy tarmoqlarda buzilgan oilaviy tasvirlar targ'iboti;
4. Nikohdan tashqari munosabatlarning normalashtirilishi^[6].

Bunday holatlar oilaviy an'analar yemirilishiga, ajrashishlar sonining ortishiga va natijada jamiyatda axloqiy inqiroz holatlarining kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, yosh avlod orasida buzg'unchi g'oyalarning tarqalishi oilaning tarbiyaviy funksiyasini kuchsizlantiradi va ijtimoiylashuv mexanizmlarining ishdan chiqishiga olib keladi^[7].

Raqamli axborot muhitida yoshlar uchun "normal" va "qabul qilinadigan" xulq-atvor me'yorlari ko'pincha oilaviy tajribadan ko'ra internetdagi trendlar va ommaviy kontent orqali shakllanmoqda. Bu jarayon yoshlarning qadriy tanlovida oilaning tarbiyaviy rolini ma'lum darajada cheklab, tashqi ijtimoiy ta'sir kuchini oshiradi. Natijada qadriyatlar psixologik jihatdan "ichki ehtiyoj" sifatida emas, balki "ijtimoiy moslashuv mezon" sifatida qabul qilinish ehtimoli kuchayadi.

Virtual muloqotning ustuvorlik kasb etishi oila ichidagi real muloqot madaniyati va hissiy yaqinlikning sustlashishiga olib kelishi mumkin. Oilaviy munosabatlar tizimi asosan "birga yashash" va "birdamlik" tushunchalariga tayanadi. Virtual makonda esa shaxslararo aloqalar tezkor, yuzaki va ko'proq emotsional reaksiyalar asosida shakllanadi. Bu yoshlarning oilaviy munosabatlarga bo'lgan qarashida ham qisqa muddatli, tez o'zgaruvchan hamda individualistik pozitsiyaning kuchayishiga sabab bo'ladi.

Ommaviy madaniyatning algoritmlar asosida tarqalishi yoshlarning ongida oilaviy qadriyatlarni global standartlar bilan qiyoslash ehtiyojini kuchaytiradi. Bunda an'anaviy qadriyatlarga xos bo'lgan "jamoaviylik", "kelishuv", "oila manfaatini ustuvor qo'yish" kabi qadriyatlar o'rniga "shaxsiy erkinlik", "mustaqil tanlov", "individual muvaffaqiyat" kabi tendensiyalar barqarorlashishi mumkin. Biroq bu jarayon har doim ham salbiy mazmunda bo'lmay, ayrim hollarda oilaviy qadriyatlarining zamonaviy shaklga moslashuvi sifatida ham qaralishi mumkin.

Oilaviy qadriyatlar yoshlar ongida dunyoqarash, ijtimoiy rol, kelajak tasavvuri va maqsadlar tizimini shakllantiruvchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Raqamli jamiyatda bu manbaga parallel ravishda internet va virtual ijtimoiy platformalar ham "tarbiyaviy agent" vazifasini bajara boshlaydi. Shu sababli yoshlar ongida qadriy yo'nalishlarning shakllanishida quyidagi psixologik mexanizmlar asosiy o'rin tutadi:



Ijtimoiy taqqoslash mexanizmi ya'ni ijtimoiy tarmoqlarda ko'rsatilayotgan "ideal hayot", "ideal oila", "mukammal munosabat" kabi obrazlar yoshlarning oilaga nisbatan real tasavvuriga psixologik bosim sifatida ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu holat shaxsda qoniqmaslik, oilaviy munosabatlarni past baholash, muammolarni "normal jarayon" sifatida qabul qilmaslik kabi psixologik og'ishlarga olib kelishi ehtimoli mavjud;

Virtual identifikatsiya ya'ni yoshlarning virtual makonda o'zini ifodalashi real oilaviy identifikatsiyadan ustun kelishi mumkin. Bunday vaziyatda shaxs o'zini oila a'zosi sifatida emas, balki internetdagi "ijtimoiy rol" orqali anglay boshlaydi. Bu esa oilaga sodiqlik, mas'uliyat va qadriy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi;

Emotsional reaktivlik va tezkorlik sindromi ya'ni raqamli muhitning tezkorligi yoshlarning emotsional boshqaruv tizimiga ham bevosita ta'sir qiladi. Oilada esa sabr, muros, kechirim, hamkorlik kabi qadriyatlar ustuvor bo'ladi. Raqamli muhit ta'sirida esa yoshlar muammolarni murosali hal qilish o'rniga "tezkor chiqish", "vaziyatdan qochish", "rad etish" kabi psixologik reaksiyalarni tanlashi mumkin.

Pedagogik yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, oilaviy qadriyatlarning o'zgarishi bevosita yoshlarning tarbiyaviy muhitida ham aks etadi. Ta'lim muassasalarida intizom, hurmat, mas'uliyat, jamoa bilan ishlash kabi qadriyatlarning shakllanishi oiladagi tarbiya bilan uzviy bog'liq. Agar oilada qadriy me'yorlar izchil shakllanmagan bo'lsa yoki raqamli omillar bu jarayonni cheklayotgan bo'lsa, maktab va oliy ta'limdagi pedagogik ta'sir ham sustlashadi.

Shu jihatdan, raqamli jamiyat sharoitida oilaviy tarbiya jarayoni quyidagi pedagogik yo'nalishlarda takomillashtirilishi zarur deb hisoblanadi:

- ota-onalarda raqamli tarbiya kompetensiyasini shakllantirish;
- yoshlarning media savodxonligini oshirish;
- oilada real muloqotni kuchaytirish va "raqamli muvozanat"ni ta'minlash;
- ta'lim muassasalari va oila hamkorligini kuchaytirish.

Olib borilgan nazariy tahlil natijasida quyidagi ilmiy xulosaviy natijalarga kelindi:

1. Raqamli jamiyat oilaviy qadriyatlarni to'liq yo'qotmaydi, biroq ularning mazmunini o'zgartirib, zamonaviy shaklda qayta talqin qilishga majbur etadi;
2. Yoshlar ongida qadriyatlar shakllanishining asosiy manbasi oila bo'lib qolayotganiga qaramay, raqamli platformalar ushbu jarayonga kuchli raqobatchi ta'sir ko'rsatmoqda;
3. Virtual muhitning nazoratsizligi va algoritmik ta'siri oilaviy tarbiyaning izchil davomiyligini buzishi, natijada yoshlarning axloqiy barqarorligini zaiflashtirishi mumkin;
4. Muammoni bartaraf etish pedagogik profilaktika, ota-onaviy raqamli savodxonlik va ta'lim muassasalarining tarbiyaviy faoliyatini oilaviy tarbiya bilan uyg'unlashtirish orqali amalga oshiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida oilaviy munosabatlar tizimi ham transformatsiyaga uchrab, oilaviy qadriyatlarning mazmunan yangilanishi hamda yoshlar ongida qadriy yo'nalishlarning o'zgarishi bilan namoyon bo'lmoqda. Nazariy tahlillar internet va virtual muhit yoshlarning dunyoqarashi, muloqot madaniyati hamda ijtimoiy tanlovlariga kuchli ta'sir ko'rsatayotganini, natijada oilaviy tarbiya imkoniyatlari raqamli omillar bilan raqobatga kirishayotganini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari oilaviy qadriyatlar shaxsning ma'naviy-axloqiy rivoji, emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuvini ta'minlovchi asosiy omil ekanligini ko'rsatdi. Biroq raqamli muhit ta'siri natijasida yoshlar ongida qadriyatlar qayta talqin qilinib, individualizm, emotsional sovuqlik va oilaviy mas'uliyatning susayishi kabi holatlar kuchayishi mumkin. Shuningdek, virtual ijtimoiylashuv real oilaviy muloqotni cheklab, tarbiya jarayonining uzviyligi hamda murosaga kelish, emotsional boshqaruv kabi ko'nikmalar shakllanishini sustlashtirishi ehtimoli mavjud.

Oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi tarbiyaviy hamkorlikning yetarli darajada yo'lga qo'yilmagani "raqamli tarbiya bo'shlig'i"ni yuzaga keltiradi. Bu esa yoshlar ongining shakllanishida internet kontenti va ommaviy madaniyat ta'sirining ortishiga olib keladi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, ota-onalarda raqamli tarbiya kompetensiyasini rivojlantirish, ta'lim tizimida media savodxonlik va qadriy tarbiyani kuchaytirish hamda oilalarda real muloqotni mustahkamlash tavsiya etiladi. Shuningdek, jamiyat miqyosida tarbiyaviy seminarlar, ota-onalar uchun psixologik treninglar va raqamli madaniyatga oid ijtimoiy loyihalarni kengaytirish yoshlar ongida sog'lom qadriy yo'nalishlarni shakllantirishga xizmat qiladi.



Umuman olganda, raqamli davrda oilaviy qadriyatlar transformatsiyasini chuqur ilmiy tahlil qilish va tarbiya mexanizmlarini zamonaviy sharoitga moslashtirish orqali yoshlar ongida barqaror, ijobiy va sog'lom qadriyatlar tizimini mustahkamlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Teshayeva G.M. Raqamli jamiyatda yoshlar tarbiyasi masalalari va ijtimoiy muammolar. Oriens ilmiy-amaliy jurnali. – 2025. – B.246.
2. O'ktamova D. O'. Raqamli jamiyatda yoshlarning axloqiy qiyofasini shakllantirish ijtimoiy tamoyillari. Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi. Innovative Academy RSC. – B.52.
3. G'.B. Shoumarov, I.O. Haydarov, N.A. Sog'inov, F.A. Akramova, G. Solihova, G. Niyozmetova Oila psixologiyasi. Toshkent – 2010. – B.54.
4. Sharipov R. Oila va jamiyat sotsiologiyasi asoslari. –Toshkent: "Fan", 2020. – B.256
5. Muxammadiyeva, O. N. (2025). Oila institutining jamiyatdagi barqarorlik va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi roli. Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – B.135.
6. Normurodova M. Ommaviy madaniyat va ijtimoiy ong. –Toshkent: O'zR FA, 2020. – B.198.
7. Zaremohzzabieh, Z., Ahrari, S., Krauss, S., Abu Samah, A., & boshq. (2020). Youth Work in a Digital Society. IGI Global.
8. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2025). How's Life for Children in the Digital Age? OECD Publishing.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.